

PHP dasturchilar uchun kengaytirilgan mavzular va misollar



PHP texnologiyasi kursi

Ushbu uslubiy qo'llanmada PHP texnologiyalarini ishlash printsiplari, asosiy komponentlari va asosiy imkoniyatlari keltirib o'tilgan. Qo'llanmada webserverlarni o'rnatish, PHP sintaksisini, operator va funksiyalari bilan ishlash, MySQL MBBT bilan ishlashni hamda ulardan foydalanib ma'lumotlarni qayta ishlash, cookie va sessiyalar bilan tanishish. PHP yordamida PHP tilining ma'lumot turlari bilan ishlashini ko'rish, uni bugungi kundagi web 2.0 standartidagi loyihalarni tuzishda qo'llanilishini o'rganish. Bu uslubiy qo'llanmadan o'quv jarayonida va mustaqil o'rganuvchilar foydalanishlari mumkin.

Mualliflar:

A.B.Shukurov – BuxDU
Informatika va axborot
texnologiyalari ta'lim yo'nalishi 4-
kurs talabasi.
F.H.Hazratov – Buxoro davlat
universiteti “Axborot texnologiyalari
kafedrası” o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

Sh. S. Yo'ldoshev – BuxMTI
Informatika va axborot
texnologiyalari kafedrası dotsenti.
X. Xayatov – BuxDU Axborot
texnologiyalari kafedrası katta
o'qituvchisi

Ushbu uslubiy qo'llanma Buxoro davlat universitetining Axborot texnologiyalari kafedrasining 2018 – yil __ – _____dagi yig'ilishiga hamda Fizika – matematika fakultetining 2018- yil __ - _____dagi __ - sonli Kengash yig'ilishida ko'rilgan va nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

Kirish	4
I BOB. WEB 2.0 TEXNOLOGIYASINING ASOSIY JIHATLARI VA PHP ARXITEKTURASI	
1.1 Web 2.0 konsepsiyasi. Web saytlarning tuzilmaviy qurilishi	8
1.2 PHP asosiy tushunchalar, sintaksis va imkoniyatlar	16
1.3. PHP da global o`zgaruvchilar yordamida ma`lumotlarni qabul qilish va uzatish. Funktsiyalar va ob`ektlar	26
1.4. PHP da forma elementlari va fayllar sistemasi bilan ishlash	39
Bobga oid testlar	49
I Bob bo'yicha xulosa	59
II BOB. Dinamik web loyihalarda PHP texnologiyasidan foydalanish. Xavfsizlik va autentifikatsiya masalalari	
2.1. Ma`lumotlar bazasi bilan ishlashda PHP va MySQL MBBTdan foydalanish.	60
2.2. Web saytda autorizatsiya vositalari. Cookie fayllar va sessiyalar bilan ishlash	73
2.3. PHP da ma`lumotlarni almashish formatlari: XML va JSON.....	80
Bobga oid testlar	91
II Bob bo'yicha xulosa.....	96
Web serverlarni o`rnatish bo'yicha yo`riqnoma	97
Web dasturchi lug`ati	108
Xotima	115
Adabiyotlar	116

Kirish

“Yangi fikr, g`oya, innovatsiya bo`lmasa keyingi kunda yuta olmaymiz”

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev

Bugungi kunda talabalarga sifatli talim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli bo`lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi-kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo`llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan, hamda masofadan o`qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr taqozasi bo`lib qolmoqda.

Respublikamiz ta`lim tizimidagi asosiy vazifa jahon talablariga mos keluvchi axborot texnologiyalarini o`qitish jarayoniga qo`llashdan iborat. O`zbekistonda ta`lim tizimining axborotlashtirilishi xalqaro hamjamiyatda ham tan olindi. Masofaviy ta`limni rivojlantirish bo`yicha bir qator dasturlar ishlab chiqilmoqda. Iqtisodiyot va jamiyatda islohotlarning o`tkazilishi natijasida o`quv jarayonining zahira hajmini keskin oshirish bo`yicha yangi talablar qo`yildi. Hozirgi kunda axborot eng asosiy ishlab chiqaruvchi resurslardan biriga, iqtisodiyot va umuman jamiyatning rivojlanish poydevoriga aylanmoqda.

Yangi axborot - kommunikatsion texnologiyalar hozirgi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo`lib kelmoqda, sababi har bir sohani o`rganish, izlanish va tajriba o`rnatish uchun turli usullardan foydalanish kerak bo`ladi. Shuning uchun yangi axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning tarkibida yuqori malakali mutaxassislarning roli benihoya kattadir. Birinchi Prezidentimiz ta`kidlaganidek, “Ertangi kun yangicha fikrlay oladigan zamonaviy bilimga ega bo`lgan yuksak malakali mutaxassislarni talab etadi”. Shu sababli xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va

texnologiyalar asosida yuksak mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur'atlar bilan hayotga tadbiq etilmoqda.

Ma'lumki har qanday avtomatlashtirilgan tizim qo'shimcha imkoniyatlar, interaktivlik, tezlik va qulaylikni talab qiladi. Bu esa bugungi kundagi internet texnologiyalarini rivojlanishida ham eng birinchi turtki bo'lib xizmat qilyapti. Yuqori web-texnologiyaga asoslangan saytlarni tayorlash uchun foydalanuvchi HTML, CSS, PHP, MySQL, JavaScript va keyingi paytlarda sahifalarning interaktivligini oshirish maqsadida XML va JSON texnologiyalarini bilishi hamda ma'lumotlar ombori bilan ishlash kabi malakaga ega bo'lishi kerak. O'rganilayotgan PHP texnologiyalari internet saytlarini yaratish va ularni mukammal qolipga keltirish, qolaversa, yaratilayotgan sayt o'zida bu yangi texnologiyalarni mujassamligini ta'minlash vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Interaktiv web-saytlar yaratish kabi yangi axborot–kommunikasion texnologiyalari hozirgi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda, sababi har bir sohani o'rganish, izlanish va tajriba orttirish uchun turli usullardan foydalanish kerak bo'ladi. Shuning uchun bu yangi internet texnologiyalaridan foydalanish uchun mukammal o'quv-uslubiy qo'llanma yaratish maqsadga muvofiqdir.

Interaktiv web-saytlar yaratish kabi yangi axborot–kommunikasion texnologiyalari hozirgi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda, sababi har bir sohani o'rganish, izlanish va tajriba orttirish uchun turli usullardan foydalanish kerak bo'ladi. Shuning uchun bu yangi internet texnologiyalaridan foydalanish uchun mukammal o'quv-uslubiy qo'llanma yaratish maqsadga muvofiqdir.

Qo'llanmani yaratishdan maqsad PHP texnologisi bo'yicha dastulash tili haqida uslubiy qo'llanma yaratish, Webserverlarni o'rnatish, PHP sintaksisini, operator va funksiyalarini o'rganish, MySQL MBBT bilan ishlashni hamda ulardan foydalanib ma'lumotlarni qayta ishlash, cookie va sessiyalar bilan tanishish. PHP yordamida

PHP tilining ma'lumot turlari bilan ishlashini ko'rish, uni bugungi kundagi web 2.0 standartidagi loyihalarni tuzishda qo'llanilishini o'rganish.

PHP texnologiyasining asosiy qismlari o'quv qo'llanmada yoritish bilan birga qo'llanmani tayyorlashdan oldin mavzular tarkibi chuqur o'rganib chiqildi.

Qo'llanmada PHP dasturlash tili. Dasturiy ta'minotlar bilan jihozlangan kompyuter xonalari. PHP dasturlash tilida web ishlanma yaratish uchun OpenServer yoki Denwer webserverlari, Dreamweaver, PHPStorm platformalari, Notepad++, AkelPad va boshqa tahrirlagichlar. Dasturlarni tuzishda va muhitlar bilan ishlashda kompyuter texnologiyalari, shu bilan birgalikda eng zamonaviy usullardan foydalanish kabi predmetlardan foydalanildi

PHP texnologiyasi bo'yicha o'zbek tilida mukammal qo'llanmalarning mavjud emasligi sabab qo'llanmadan talabalar amaliy mashg'ulotlarda foydalanishlari, web ishlanmalar yaratayotganda real muammolarning yechimlari sifatida amaliy scriptlar keltirilgan, har bir script bitta modulning yechimi sifatida qarash mumkin .

O'quv qo'llanma asosida PHP dasturlash tilidan interaktiv kurs yaratildi. Mazkur o'quv qo'llanmani dars o'tish jarayoniga qo'llash mumkin. Hamda Web dasturlash fanlaridan qo'shimcha adabiyot sifatida foydalanish mumkin.

Qo'llanma tarkibi quyidagicha : Kirish, 2 ta bob, adabiyotlar ro'yxati, xotima va ilovalardan iborat bo'lib jami ____ betga bayon qilingan.

Kirish qismi 3 betdan iborat, tushuntirish qismi 57 betdan iborat bo'lib, unda 41 ta chizmadan foydalanildi. Qo'llanmada 11 ta adabiyotdan foydalanildi.

I BOB. WEB 2.0 TEXNOLOGIYASINING ASOSIY JIHATLARI VA PHP ARXITEKTURASI

1.2 Web 2.0 konsepsiyasi. Web saytlarning tuzilmaviy qurilishi


Bugungi kunda axborot texnologiyalari rivojlanishini web texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Web texnologiyalari deganda - web ilovalar hosil qilish, web saytlar tashkil qilish, tarmoq va texnologiyalar jamlanmasi tushuniladi. Web texnologiyalarida quyidagi 3 ta asosiy tushuncha mavjud:

- Web sahifa
- Web sayt
- Web server

Web sahifa o'zining unikal adresiga ega bo'lgan va maxsus brauzer dasturlar orqali ochiladigan va ko'riladigan elektron hujjatdir.

Web sayt bir nechta web sahifalarning mantiqiy va funksional jihatdan birlashtirilgan sahifalar to'plami.

Web server tarmoqqa ulangan kompyuter hisoblanib umumiy resurs va dasturlarni boshqaradi. Web sahifa va web saytlar bilan ishlash uchun eng keng tarqalgan texnologiya WWW texnologiyasidir. Umumiy holda web texnologiyalarni quyidagi sxema ko'rinishida tasvirlash




1.1 - rasm. Web texnologiyalarining klassifikatsiyasi.

WWW (World Wide Web) - butun jahon tarmog'i. Ayni mana shu xizmat Internet bilan foydalanishni soddalashtirdi va ommaviylashtirdi. WWW asosida to'rtta poydevor mavjud:

1. Barcha hujjatlarning yagona formati (shakli)
2. Gipermatn
3. Hujjatlarni ko'rish uchun maxsus dasturlar
4. Yagona manzilni ko'rsatish tizimi

Hujjatlarning yagona formati (shakli)

Internetda barcha hujjatlar HTML (Hyper Text Markup Language - Gipermatnni belgilash tili) formatida tuziladi. HTML yordamida yozilgan hujjatlarni web-hujjat




yoki web-sahifa deb atashadi. Birorta foydalanuvchi yoki tashkilotga qarashli bo'lgan, bir-biriga bog'langan web-sahifalar to'plami SAYT deb aytiladi.

1.2 HTTP va HTML

Gipermatn jo'natish protokoli (HTTP) web-brauzer va web-server muloqotining asosini tashkil etadi. Web-brauzer HTTP maxsus komandasi orqali server bilan bog'lanish uchun so'rov jo'natadi. Agar so'rov qoniqtirilsa, brauzer server bilan bog'lanadi. Qabul qiluvchi tomon nima qilishni o'zi xal qiladi yoki ekranda faylni ko'rsatadi, yoki uni diskda saqlab qo'yadi va h.k. HTTP Internetda foydalaniladigan yagona protokol emas. Fayllar uzatish protokoli (Post Office Protocole - POP, Simple Mayl Transport Protocole - SMTP), shifrlangan HTTP

protokoli (SHTTP) kabi protokollar mavjud.

Web dasturlash nuqtai nazaridan brouzer darchasi – allaqanday Window ob’ekti bo’lib hisoblanadi. Bu ob’ekt o’z navbatida bir necha rasmiylashtirish elementlariga ega. Darcha ichkarisiga biz html hujjatini o’rnatishimiz mumkin (yoki boshka tildagi fayl, hozircha html fayli bilan chegaralanib turamiz). Bunday sahifa document ob’ektidan sira ham farq kilmaydi. Quyidagi rasmda html sahifaning ob’ektlari ierarxiyasi tasvirlangan:



1.3-rasm. Html sahifaning ob’ektlari ierarxiyasi

Biz bu ierarxiya yordamida turli ob’ektlar haqida ma’lumotga ega bo’lishimiz va uni boshqarish imkoniga ega bo’lishimiz kerak.

Web ning eng asosiy xususiyatlaridan biri, unda turli matn, video, grafik ob’ektlarga gipermurojaatning mavjudligidi. U o’z saxifalarini saqlash va uzatish uchun Internet dan foydalanadi. Web- internet tarmoklarida joylashgan fayllar to’plami bo’lib, ularning soni soat sayin ko’payib bormoqda.

Web ma'lumotlarni gipermatnli xujjatlar shaklida tayyorlash uchun Web dasturlash tillari yaratilgan bo'lib ular bir nechtaadir. Ular xar xil dsturiy vositalar yaratuvchi firmalar tomonidan yaratilgan bo'lib, xar biri o'ziga yarasha kulayliklar va afzalliklarga ega. Quyida ulardan asosiylarini nomlarini keltirib o'tamiz:

PHP dasturlash tili , ASP.Net dasturlash tili , Java dasturlash tili ,Perl dasturlash tili va boshqa bir qancha dasturlash tillari mavjud. Bu dasturlash tillarining kompilyatorlari aloxida Web serverlarda ishlaydi. Masalan, PHP da tuzilgan dastur Apache serverda, ASP.Net da tuzilgan dastur IIS serverda ishlaydi.

1994 yili php tilining yaratuvchisi Rasmus Lerdorf o'zinig saytiga mehmonlar kirishini hisoblash uchun Perl dasturlash tilida maxsus qobiq yozib amalda qo'llagan. Ko'p o'tmay qobiqni ishlash unumdorligi juda past va sekinligi aniqlanganidan so'ng, dasturlarni yangidan "C" tilida yozib chiqishga to'g'ri keladi. Keyin, dastlabki dastur kodlari muallif tarafidan barchaga ko'rish uchun serverga nashr qilingan. Server foydalanuvchilari kodlar bilan qiziqib, uni ishlatish muxlislari ham paydo bo'lgan. Ko'p o'tmay, bu dasturlar alohida loyihaga aylanib, 1995 yilning iyul oyida dasturiy mahsulot PHP (Personal Home Page) nomi bilan birinchi nashri chiqarildi. Imkoniyatlari oddiy va sodda bo'lib: bir necha buyruqlarni tushunadigan kod analizatori(tekshiruvchisi), mehmonlar hisoblagichini, kitobini, chatini yaratish uchun foydali dasturlar to'plamidan iborat bo'lgan.

1996 yil aprel oyida dasturlar jiddiy qayta ishlanganidan so'ng, PHP/FI (Personal Home Page / Forms Interpreter) nomi bilan mahsulotning ikkinchi nashri paydo bo'ldi. Bu mahsulot html-kod ichiga yozilib, html-formalarni qayta ishlab, hozirgi PHP dasturlash tilining tayanch imkoniyatlarini ichiga olgan. PHP/FI kod yozilishi Perl tiliga juda o'xshagan, lekin soddaroq bo'lgan.

1997 yili PHP/FI 2.0 nashri chiqdi. O'sha paytda bu mahsulot bilan dunyo bo'yicha bir necha ming odam foydalanib, taxminan 50 ming domen bo'lib, Internetning 1% ini tashkil qildi.

1997 yilda Endi Gutmans va Ziv Suraski PHP/FI kodini boshqatdan yozib

chiqishdi, chunki eski kod ular ishlatayotgan elektron tijorat tizimlari uchun yaroqsiz edi. Eski kodning mualliflaridan yordam olish uchun ular birlashishni taklif etib, PHP3 nomli loyihani PHP/FI -ni rasmiy vorisi deb e'lon qilishdi. Yangi loyiha uyushgandan keyin PHP/FI loyihasi ishlab chiqarilishi to'xtatilgan.

PHP 3.0 ning eng kuchli taraflaridan biri uning kengaytirala olinadigan yadrosi(tizimning boshqaruv qismi) bo'lib, bundan tashqari, ma'lumot jamg'armalar bilan, turli protokollar va interfeyslar bilan birgalikda ishlash keng imkoniyatlari yaratildi. Muvaffaqiyatga erishishga ancha ahamiyatli fakt bu yangi tilni boyligi va ob'ektlarga modjallangan dasturlashni qo'llay olishi. Yangi loyiha bilan birga nafaqat tilni tashqi, ichki tuzulishi o'zgardi, balki o'zini nomi ham. Endi PHP qisqartmasi "PHP: Hypertext Preprocessor" ma'nosini anglatishi bildirildi.

1998 yilning oxirida PHP foydalanuvchilarning soni o'n minglardan oshdi. Yuz mingdan oshiq veb-saytlar bu tilni qo'llashini e'lon qilishdi. Taxminan Internetning 10% serverlarida PHP 3.0 o'rnatilgan edi.


1998 yilning iyun oyda PHP3 to'qqiz oy ommaviy tekshiruvdan keyin rasman e'lon qilindi. Shu yilning qishida Endi Gutmans va Ziv Suraski PHP yadrosini qaytadan ishlab chiqarishni boshlashgan. Ularning asosiy vazifasi PHP tiziminig unumdorligini ko'tarish va kodning modullarini yaxshilash edi.

1999 yilning o'rtalarida birinchi marta taqdim qilingan yangi yadro "Zend Engine" deb nomlangan ("Zend": mualliflar "Zeev" va "Andi" ismlardan tashkil topgan). Uni asosida tuzilgan yangi til PHP4 2000 yilning may oyida rasman chiqarilgan. Unumdorlik yaxshilangandan tashqari, PHP 4.0 muhim yangiliklarga ega bo'lib, sessiyalarni qo'llash, buferli chiqarish, kiritilgan ma'lumotlarni havfsiz qayta ishlash va yana bir necha yangi til tuzuvchilarini paydo bo'lishidan iborat.

Hozirgi kunlarda "Zend Engine" qayta yaxshilanib PHP5 tili ishlab chiqarildi. Asosiy o'zgarishlar ob'ektlarga modjallangan dasturlash modelida bo'lib, tilning imkoniyatlari yanada kengaytirdi.

Hozirda PHP tilini yuz minglab dasturchilar ishatib, bir necha million saytlar

yaratilib, Internetning 20% domenlarini tashkil etmoqda.



1.4 –rasm. PHP5 yaratilish tarixi

PHP tarixining jadvali

Nashr Sana Izoh

PHP 1.0 1995 yil, 8 iyun Rasmiy nomi “Personal Home Page Tools (PHP Tools)”. Bu “PHP” qisqartmani birinchi marta ishlatilinishi.

PHP 2.0 1996 yil, 16 aprel Veb sahifalami “Tez va oson ishlaydigan qurol” deb e’lon qilingan mahsulot.

PHP 3.0 1998 yil, 6 iyun Bir kishi ishlab chiqaruvchi loyihadan ko’p ish lab chiqaruvchilar loyihasiga aylandi. Endi Gutmans va Ziv Suraski kodni boshqatdan yozib chiqishdi.

PHP 4.0.0 2000 yil, 22 may Yangi yadro “Zend Engine” asosida tuzilgan

PHP 4.1.0 2001 yil, 10 dekabr Til konstruktsiyasiga superglobal imkoniyatlar qoshilgan (\$_GET, \$_POST, \$_SESSION, etc.)

PHP 4.2.0 2002 yil, 22 aprel Xavfsizlikni oshirish maqsadida tizimning sozlash “register_globals” parametri o’chirilgan.

PHP 4.3.0 2002 yil, 27 dekabr “CGI” (Common Gateway Interface)ga qo’shimcha “CLI” (command line interpreter) texnologiyasi kiritilgan.

PHP 4.4.0 2005 yil, 11 iyul phpize va php-config skriptlari uchun qo'llanma varaqlari qo'shilgan.

PHP 5.0.0 2004 yil, 13 iyul Zend Engine II - yangi ob'ekt modeli kiritilgan.

PHP 5.1.0 2005 yil, 24 noyabr PHP Engine ishlash unumdorligi yaxshilangan.

PHP 5.2.0 2006 yil, 2 noyabr Kengaytiradigan filtr modullarining php tizimida ishlatish imkoniyatlari ochiq holati o'rnatilgan (default).

Yuqori talabga ega bo'lgan barcha dasturiy mahsulotlar odatda vaqti-vaqti

Version	Release date	Supported until	Key		
			Color	Meaning	Development
5.3	30 June 2009	14 August 2014	Red	Old release	No development
5.4	1 March 2012	September 2015	Yellow	Stable release	Security fixes
5.5	20 June 2013	June 2016	Green	Stable release	Bug and security fixes
5.6	28 August 2014	August 2017	Blue	Future release	New features
7.0	12 Nov 2015	12 Nov 2018			

1.5 – Rasm. PHP7 yaratilish tarixi. Versiyalar prefiksi

bilan yaxshilanadi. Natijada, yangi funksiyalar paydo bo'ladigan yangi versiyalar paydo bo'ladi va oldingi versiyalarda yuzaga kelgan xatolar aniqlangan. PHP versiyalari juda oz - faqat 5, ammo ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning har biri bilan batafsil tanishib chiqish uchun ularni quyidagi ro'yxatga kiritish lozim:

- PHP 5.3. Haqiqatan ham ma'lum bo'lganidek, tilning avvalgi versiyalari mavjud edi. Biroq ular ommaviy iste'molchilar uchun foydalanishga yaroqsiz, tugallanmagan mahsulotlarni namoyish qilishdi. Versiya 5.3da ikkinchi avlod Zend Engine buyrug'i bilan ishlaydigan mashina-interpretatori ishlatiladi. Shu sababli tilning tez ishlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu versiyada nom talab qilmaydigan anonim funksiyalar, ternar operatorlar, shuningdek funksiya va metodlardan obyektlarni chaqirish mumkin bo'ldi. Boshqa versiyalar bilan taqqoslaganda bular asosiy bo'lib, qolgan imkoniyatlari bilan virtual tarmoqda tanishish mumkin. Qolganlari kabi, bular asosiy o'zgarishlar bo'lib, ular bilan virtual tarmoq orqali

tanishishingiz mumkin. Alohida ta`kidlash kerakki bu versiyada dasturning boshqa qismiga tez o`tish Goto operatori mavjud edi.

- PHP 5.4. Biroz vaqt o'tdi va dasturlash tilining keyingi versiyasi paydo bo'ldi. Bunda arrayni ishlatmasdan massivga yozuvchi o`zlashtirish, sinflar ishidagi metodlarga statik aloqalar o`rnatish, massiv elementlarini tez qaytarish, metod va funksiyalarning argumentlariga yangi tip e`lon qilish mumkin bo`ldi. 5.4 versiyasida ishlash barqarorligi oshirildi.

- PHP 5.5. Ushbu versiyada empty operatori qayta aniqlandi. Uning imkoniyati ilgari faqat o`zgaruvchilarni qabul qilish bilan cheklangan edi. Endi ifoda natijasini mustaqil yaratilgan o`zgaruvchiga o`zlashtirmasdan qabul qilish mumkin. Bundan tashqari, kodni bajarilish jarayonini boshqarish va xatoliklarni to`g`rilash imkoni paydo bo`ldi;

- PHP 5.6. Ko'pchilik dasturchilar primitiv ifodalarni va konstantalar qiymatini ishlatish imkoni yo'qligi haqida shikoyat qildilar. Bu kamchilik tuzatildi konstantalar, satrlar va soni ifodalardan foydalanishingiz mumkin;

- PHP 7. Bu versiyani yuklab olish imkoniyati 2015 yil dekabr oyida paydo bo'ldi. PHP 7 versiyasi sinov liniyasida bo`lib xotira hajmini kamaytirish va ish faoliyatini yaxshilash uchun mo'ljallangan. PHP 7 da interpretator yadrosiga ham o'zgarishlar kiritildi. Natijada skriptlarni qayta ishlash vaqti bir necha marta qisqartirildi. Yangi versiya xotira boshqaruvida o`zini yaxshi namoyon qildi.

1.2. PHP asosiy tushunchalar, sintaksis va imkoniyatlar

PHP – o'z nomini yetarlicha tanitib ulgurgan, dasturlash tili hisoblanadi. Gap shundaki, boshlanishda bu uncha qiyin bo'lmagan shaxsiy WEB –sahifalarini yaratish uchun mo'ljallangan oddiy makroslar to'plamidan iborat bo'lgan bo'lib, PHP-personal home page (shaxsiy uy sahifasi) so'zlarining qisqartmasidan iborat.

Tez orada u foydalanuvchilar nazariga tusha boshladi, hamda tezlik bilan takomillashib, ommalashib bordi. 1997 yildan bu til ustida dasturchilar guruhi ish olib boradi.

Mehnatlarning samarasida esa PHP3 keyingi versiya yaratildi. Bu PHP ning takomillashgan va zamonaviy versiya bo'lib, unda matnlarining qayta ishlashning yangi usullari yaratildi va bu usullar Zib Zuraski va endi Gutians (Zeev, Surasky, Andi Ceutmans) ismli progromistlar tomonidan yaratildi. Shuningdek tilning sintaksisida biroz o'zgarishlar kiritilib, yangi funkstiyalar qo'shildi. Yangi verstiya shu davrda sarver uchun dasturldash tillarining eng zo'ri hisoblanib, juda ham tez ommalashib ketdi.

MySQL ma'lumotlar bazasi va Apache serveri bilan ishlash uchun PHP ning imkoniyatlari yanada kengayib bordi. Apache serveri hozirgi kunda dunyodagi eng keng tarqalgan Web - server hisoblanadi va PHP tili Apache serveri uchun modul ko'rinishida qo'llanilishi mumkin. MySQL- bu zamonaviy ma'lumotlar bazasi bo'lib pulsiz (tekin) tarqatiladi, shuning uchun ham PHP ning barcha funkstiyalari shu bazaga bog'langan. Tan olish lozimki Apache, MySQL va PHP larning o'zaro bir-biri bilan bog'liq ravishda ishlashi o'rtadagi raqobatga barham beradi.

Bu esa PHP boshqa MBBT bilan ishlaymaydi degani emas. Bu texnologiya MBBT va Web serverlar bilan ishlash imkoniyatiga ega.

WEB sahifalarni va tarmoqni yaratish yo'llari o'zgarishi bilan PHP ham takomillasha bordi. 1990 -yil o'rtalariga kelib katta tarmoqlarda ham HTML da yozilgan yuzlab statik sahifalar ishlatilar edi. hozir esa jarayon o'zgarib bormoqda. WEB sahifalarini yaratuvchilar ma'lumotlar bazasi bilan ishlovchi WEB sahifalarni

yaratish imkoniga ega bo'lib, foydalanuvchilarni qayta ishlash imkoniga ega bo'lgan WEB sahifalarni yaratmoqdalar.

Ma'lumotlarni saqlash va ma'lumotlarga murojat qilish uchun ma'lumotlar bazasidan foydalanish yanada aktuallashtirib, mobil telefonlar, raqamli televideniya va hokazolar. Turli xil qurilmalarda ma'lumotlarni uzatishda sifatni o'sishiga erishishmoqda.

Bu fikrlar asosida aytish mumkinki, kelgusida PHP tili yanada takomillashib o'zining o'ta yuqori darajadagi dasturlash tili ekanligini namoyon qiladi.

PHP turli xil sistemalarda ishlay oladi. U sistema Windows, Unix ning ko'plab versiyalari, shuningdek Linux va hatto Macintosh bo'lishi mumkin. PHP ko'plab tarmoq servislari XAMPP, WAMP, Lampp, Ngix, OpenServer va Denwer webserverlarda ishlashi mumkin. Agar o'zimiz tuzgan dasturlarimizni Windows tizimida tekshirishni xoxlasak oxirgi sanab o'tilgan serverdan foydalanishimiz mumkin, xatto Apache serveri Windows sistemasi boshqaruvida ishlasa ham.

PHP interpretatori yordamida dasturni alohida mustaqil ko'rinishda kompilyasiya qilish mumkin. U holda dasturni mustaqil ishga tushirish mumkin. PHP tilini yaratishda ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanish talablarini alohida e'tiborga olingan. Ko'plab ma'lumotlar bazalarini PHP da o'qish mumkin. Masalan bularga InternetBase, dBase, MsSQL, Sybase, Empress, MySQL, Velosic, FilePro, Oracle, Unixdbm, Informix,PostgreSQL va hokazolarni keltirishimiz mumkin. Shuningdek, PHP ODBC standartini ham o'qiy oladi. Ushbu qo'llanmada esa biz Linux, Apahe va MySQL serverlar asosida fikr yuritamiz. Bu uchta dasturlar majmualari keng foydalanish mumkin bo'lgan

PHP5 ni <http://www.php.net> tarmog'idan olish mumkin. Buning uchun esa, alohida kredit kartochka talab qilinmaydi.

PHP ni web-tarmog'i dasturchilar uchun ajoyib manba hisoblanadi. <http://www.php.net/manual> adresida boshqa dasturchilarning izohlari, fikrlash va tanqidiy fikrlari keltirilgan ma'lumotlarni va qo'llanmalarni olish mumkin. Bu qo'llanmalarni turli xil formatlarda olish mumkin.

PHP.ini fayli. PHP ni o'rnatib bo'lgandan so'ng, uning nastroykasini PHP.ini fayli yordamida o'zgartirish mumkin. Agar kompyuterga UNIX operastion sistemasi o'rnatilgan bo'lsa, bu fayl /usr/local/lib katalogida, agar Windows operastion sistemasi o'rnatilgan bo'lsa, Windows katalogida joylashgan bo'ladi.

Agar dasturlash tili omma uchun (tekin) bo'lsa, albatta yordamni Internetdan yetarlicha topish mumkin. PHP tili bo'yicha siz bilan fikr almasha oluvchi yana bir yaxshi manba bo'lib, u PHP bilimlar bazasi, yani knowledge Base deb nomlanadi, va uni <http://www.fag.com/knowledge-base/index.phtml> deb nomlanadi.

Birinchi dastur.

Biz yuqorida PHP ni o'rnatish va o'rganish bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni oldik. Endi esa, PHP da birinchi dasturimizni yaratishga harakat qilamiz. PHP da dastur tuzish uchun HTML dagi kabi WEB-sahifa yaratishni bilishimiz lozim.

Ushbu dasturda esa, quyidagilarni o'rganishga harakat qilamiz:

PHP-programmalarini yaratish, setverga nusxasini ko'chirish va ishga tushirish
PHP komandalari va HTML matnini bitta hujjatga bog'lash, Dastur matnini tushintirish uchun izoh keltirish

PHP-dasturni tuzish uchun ixtiyoriy matn redaktorini ishga tushiramiz. PHP – dasturi HTML- hujjatlari kabi oddiy matndan tashkil topadi. Shuning uchun dasturni ixtiyoriy matn redaktorida, agar Windows bo'lsa, Notepad++, AkelPad, Eclipse, Netbeans, PhpStormda ham yozish mumkin. quyidagi dastur matnini kiritaylik va uni first.php deb saqlaylik:

```
<?php  
echo "PHP kursiga xush kelibsiz";  
?>
```

ushbu dastur kengaytmasi albattda . PHP bo'lishi shart. Agar dastur server emas, balki mijoz kompyuterida tuzilgan bo'lsa, dastur faylini serverga kiritish uchun FTP

servisdan foydalanishga to'g'ri keladi. Agar dasturda xatoliklar mavjud bo'lmasa, u holda natijani brauzer oynasida ko'rish mumkin.

Agar dasturda yoki uning kengaytmasida xatolik mavjud bo'lsa, brauzer oynasida dastur matnining o'zi namoyon bo'ladi.

PHP-programmani yozishda interpretatorga oddiy HTML-matndan farqini belgilovchi komandani berishimiz lozim. Aks holda komandalar HTML-matn sifatida kabul kilinib brauzer uzatiladi. quyidagi jadvalda PHP-komandalarini berishning 4-xil usuli keltirilgan.

Teg turlari	Ochuvchi teg	Yopuvchi teg
Standart	< ? php	?>
qisqacha	< ?	?>
ASP	< %	%>
Dasturiy	<script language="php">	</script

Jadvalda keltirilgan standart va dasturiy teglar PHP ning ixtiyoriy konfigurastiyasida ishlaydi. qisqa va ASP teglar ishlashi uchun php.ini faylida aniq keltirilgan bo'lishi lozim. Qisqa teglar foydalanilishi uchun php.ini faylida quyidagi direktiva yozilgan bo'lishi lozim:

```
Short_open_tag=on;
```

Standart holda bu derektiva yoqig` bo'ladi, shuning uchun php.ini faylini faqat off qilish uchungina tahrirlashimiz mumkin. ASP tegida foydalanish uchun esa, quyidagi direktiva yoqilgan bo'lishi lozim:

```
Asp_tags=on;
```

Php.ini faylini tahrir qilib, ixtiyoriy direktivadan foydalanish mumkin. quyidagi barcha teglar uchun yozilgan dastur matnini ko'raylik:

```
<?
echo "PHP kursiga xush kelibsiz";
?>
```

```
<? php
echo "PHP kursiga xush kelibsiz";
?>
```

```
<%
echo "PHP kursiga xush kelibsiz";
%>
```

```
<script language="php">
echo "PHP kursiga xush kelibsiz";
</script>
```

echo () funkstiyasi

Bu funkstiya ma'lumotlarni ekranga chop qilish uchun foydalaniladi. Ekranga beriladigan ma'lumotlar () ichiga beriladi. Ekranga beriladigan har bir ma'lumot " " ichiga berilishi lozim. Shuningdek Echo dan keyin () qo'yish ham, qo'ymaslik ham mumkin.

HTML va PHP ning birgalikda ishlatilishi. Quyida keltirib o'tiladigan dastur faqat PHP komandalaridan tashkil topgan. Lekin ochuvchi va yopuvchi teglar qo'shish orqali HTML- matn qo'shib HTML va PHP ning aralash hujjatning yaratish mumkin:

```
<html>
<head>
  <title> php va html hujjati </title>
</head>
<body>
```

```
<b>
<?php>
    echo "Salom Foydalanuvchi!";
?>
</b>
</body>
</html>
```

Agar dasturni saqlab (.PHP) uni brauzer orqali ishga tushirsak, ekranda (jirno'y) hello world! hosil bo'ladi.

PHP-dasturida kommentariyalar (izohlar)

Ma'lumki, dasturni tuzish jarayonida hamma narsa tushunarli va oddiy dasturni ham tushunib olish qiyin bo'lib qoladi. Shuning uchun ham, dastur yozish jarayonida albatta izoh keltirib borish zarur, chunki sizni dasturingizdan foydalanuvchiga biroz osonroq bo'ladi.

Kommentariya (izoh)- bu interpretorda qayta ishlanmaydigan, dasturdagi oddiy matn hisoblanadi. Izoh dasturni tushinish uchun yengillik yaratish maqsadida foydalaniladi.

O'zgarmaslar. O'garuvchilardan foydalanish ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashning eng ajoyib usullaridan biri hisoblanadi. Biz bu o'zgaruvchilar qiymatini, hattoki tipini xoxlagan vaqtimizda o'zgartira olishimiz mumkin. Lekin dastur yaratish jarayonida shunday holat bo'lishini istab qolamizki, bunda bizni bergan qiymatimiz yoki ma'lumotimiz dasturni yaratish va foydalanish jarayonida, kerak bo'lsa tasodifan o'zgarib ketishdan holi bo'lsin, ya'ni o'zgarmasin. Buning uchun o'zgarmaslardan foydalanishimiz zarur. PHP5 da o'zgarmaslar bilan ishlovchi define() funkstiyasi manashu maqsadda ishlatiladi. Bu funkstiya yordamida yaratilgan o'zgarmas (konstanta) dasturni yaratish va foydalanish jarayonida o'zgartirilmaydi. O'zgarmasni tashkil etish uchun define() funkstiyasida o'zgarmas nomi va uning qiymati beriladi.

Define (“nomi”,42)

O'zgarmas qabul qiladigan ma'lumot qiymat va simvol bo'lishi mumkin. O'zgarmas nomi esa faqat katta harflar bilan beriladi. O'zgarmasdan foydalanishda faqat katta harflar bilan \$ belgisini oldiga qo'ymasdan yoziladi.

Quyidagi o'zgarmasdan foydalanish dasturda qanday ishlatilishiga misol sifatida keltirib o'tamiz:

```
<html>
<head>
<title>O`zgaraslarni tashkil etish</title>
</head>
<body>
<?php
define("USER", Anvar);
echo "Salom ".USER;
?>
</body>
</html>
```

Agar dasturga ahamiyat bersak, «Salom» yozuvidan so'ng konkatlenastiya (.) belgisidan foydalandik.

PHPda yana bir imkoniyat borki, u foydalanuvchiga avtomatik ravishda bir nechta o'zgarmas tashkil etib beradi. Masalan, `_FILE_` o'zgarmasi faqat foydalanilayotgan aktiv fayl nomini o'zida saqlaydi. `_LINE_` ishlatilayotgan fayldagi aktiv qatorni aniqlab beradi va h.k.

Ma'lumki, jarayonlar chizikli, takrorlanuvchi va tarmoqlanuvchi bo'lishi mumkin. Hozirgacha urgangan va ko'rgan misollarimiz faqat chiziqli jarayonga tegishli edi. Bu mavzuning asosiy maqsadi esa, PHP5 tilida tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi jarayonlar uchun qanday funktsiya, protsedura va instruktsiyalardan foydalanilishi bilan tanishtirishdan iborat. Biz asosan quyidagilarni o'rganamiz:

if instruktsiyasi yordamida dasturdagi ba'zi bir shartlarni qanday tekshirilishi va bajarilishi;

Shart bajarilmagan qism uchun dasturning alternativ bo'limini qanday yaratish;
Switch yordamida ba'zi bir ifodalarni qiymatini e'tiborga olgan holda dastur qismini qanday yaratish ;

While yordamida tsiklik jarayonni tashkil etish;

For yordamida tsiklik jarayonlarni tashkil etish;

Tsiklik jarayonlarni tuxtatish qanday bajariladi;

Bir necha tsiklik jarayonlarni birgalikda qanday tashkil etish.

PHP5 da shartli jarayonlarni ifodalash. Juda ko'p dasturlar ma'lum bir shartlar sababli uzining holatini o'zgartirib turadi. Ma'lum bir aniq shartlar asosida dasturning takomillashuvchi yaratilayotgan Web sahifalarning dinamikligini yanada mustaxkamlaydi. Boshqa dasturlash tillari kabi PHP5 tili ham shartli instrukstiyalardan foydalanadi. Bu instrukstiya PHP5 da if yordamida amalga oshiriladi.

IF operatoridan foydalanish. IF instrukstiyasidan foydalanilayotganda hisoblash jarayoni uchun shart qavslar ichida tekshiriladi. Agar shart bajarilsa (true bo'lsa) blok ichidagi ifoda bajariladi, aks holda blok ichidagi ifoda to'liq tashlab yuboriladi. IF instrukstiyasining umumiy ko'rinishdagi sxemasini quyidagicha keltirish mumkin:

IF (shart)

{

// bu yerdagi ifoda agar berilayotgan shart rost bo'lsa bajariladi

}

Keltirib o'tilgan umumiy sxemani yanada aniqroq tushunib olish uchun quyidagi misolni keltirib o'taylik.

<html>

<head>

<title>IF yordamida shartli ifodalarni qo'llash </title>

</head>

```

<body>
<?php
$role="user";
if ($role="admin")
{
echo "Hurmatli administrator siz boshqaruv panelidasiz"
}
?>
</body>
</html>

```

Operator yordamida \$role O'zgaruvchi qiymatini "happy" qatori bilan solishtiramiz. Agar shart bajarilsa, blok ichidagi yozuv ekranga beriladi, aks holda berilmaydi. Keltirib utilgan misolda blok ichidagi instruktsiya ko'p emas, shuning uchun bu blokni yanada ixchamroq ko'rinishda quyidagicha keltirish mumkin:

```

if ($role="admin")
echo " Hurmatli administrator siz boshqaruv panelidasiz!";

```

IF instruktsiyasining else bloki. IF instruktsiyasini keltirish jarayonida beriladigan shart bajarilmasa alternativ blok keltirishga majbur bo'lib kolinadi. Bunning uchun esa, if shartdan keyingi blokdan sung else blokini ham berish lozim. Umumiy holda bu holatni quyidagicha keltirish mumkin:

```

If (shart)
{
//bu blokda ifodalar shartni tekshirish natijasi rost bulganda bajariladi
}
else
{
// bu blokda ifodalar shartni tekshirish natijasi rost bulganda bajariladi
}

```

Keltirib utilgan umumiy sxemani yanada mustaxkamlash uchun quyidagi misolni ko`rib o'taylik:

```
<html>
<head>
<title>IF yordamida shartli ifodalarni kullash va else blokini tekshirish
</title>
</head>
<body>
<?php
$role="user";
if ($role="admin")
{
echo " Hurmatli administrator siz boshqaruv panelidasiz!"
}
else
{
echo "Hurmatli $role";
}
?>
</body>
</html>
```

\$role O'zgaruvchisi bu misolda sad qatorini kabul kiladi, bu esa "admin" qatori bilan bir xil emas, shuning uchun ham shart bajarilmaydi. Bu esa, birinchi blokni bajarilmasligini bildirib, keyingi blokda keltirib o'tilgan ifodani ekranga berilishi bildiradi.

IF instrukstiyada keltiriladigan else bloki murakkab masalalarni yechish imkoniyatini beradi. PHP5 tilida esa, yanada murakkabrok bo'lgan shartlarni tekshirish imkoniyatlari mavjud bo'lib bu shartlarni biz keyingi mavzularda keltirib o'tamiz.

1.3. PHP da global o'zgaruvchilar yordamida ma'lumotlarni qabul qilish va uzatish. Funktsiyalar va ob'ektlar

O'zgaruvchilar. O'zgaruvchilar hamma dasturlash tilining asosidir. Bularga O'zgarmas sonlar, belgilar va boshqalar kiradi.

Misol qilib sonlarni olaylik. Ular butun sonlar, qoldikli sonlar bo'lishi mumkindir va yana ularni orasiga ikkilik, sakizlik, o'n oltilik sanoq sistemasidagi sonlar ham kiradi. Yoki belgilardan &, %, /, \$, # va yana harflar ham kiradi.

Agarda biz qandaydir o'zgaruvchiga nimadir belgilab berish niyatimiz bo'lsa unda biz quyidagicha yozishimiz shartdir:

`$bilim = "kitob";`

`$rang="qizil";`

Bulardan tashqari yana ishchi belgilarimiz bor ya'ni:

Nomi	Ta'rifi
<code>\n</code>	Yangi qator
<code>\r</code>	kursorni qaytishi
<code>\t</code>	gorizontal tabulyatsiya
<code>\\</code>	Teskari qiyshiq chiziq
<code>\\$</code>	Dollar belgisi
<code>\"</code>	Qo'shtirnoq belgisi
<code>\[0-7]{1,3}</code>	Sakizlik sanoq sistemasini yozilish
<code>\x[0-9A-Fa-f]{1,2}</code>	O'n oltilik sanoq sistemasi yozilishi

Bu belgilarni kerakli bo'lgan joylarda qulaygina ishlatishingiz mumkindir.

Bu yerda belgisi bilan " belgilari orasida farq bordir.

Misol:

`$double_list="item1 \nitem2\nitem3";`

`$single_list='item 1 \nitem2 \nitem3';`

Ekkranga chiqarganingizda `single_list` tamoman bir biri bilan birga va `\n` belgisi bilan chiqadi, `double_list` esa bu belgilarsiz bo'sh joy bilan birga chiqadi.

Mantiqiy funksiyalar

TRUE, FALSE

Solishtirish funksiyalariga “if else” funksiyasidir. Bunday solishtirishda sizda TRUE (Rost) yoki FALSE (yolg'on) chiqadi. keling misol bilan ko'rsak.

```
$flag=TRUE; if ($flag==TRUE): print “The flag is true! ”; else:
print “The flag is false! ”;
endif;
```

Agarda flag o'zgaruvchimiz rost bo'lsa unda ekranimizga “The flag is true!” yoziladi. Agarda yolg'on bo'lsa unda ekranimizga “The flag is false!” yoziladi.

\$flag o'zgaruvchiga biz TRUE berganimizda bizning “The flag is true” yozuvimiz ekranga chiqadi. Huddi shunday agarda siz FALSE bersangiz unda ekraningizga “The flag is false” yozuvi chaqadi.

Shu yerda yozib o'tish o'rinli deb bildim. TRUE va FALSE yozuvlarini siz raqam bilan ham belgilab berishingiz mumkin. TRUE=1 FALSE=0.

Agarda yuqoridagi misolda \$flag=1; deganingizda ham oynangizga “The flag is true!” yozuvi chiqqan bo'lardi.

Nomlash

Ob'yektlarni, funksiyalarni, o'zgaruvchilarni nomlash uchun siz hamma belgilardan (lotincha) ishlatishingiz mumkin. Faqatgina boshlanishi sondan va yordamchi belgilardan bo'lishi kerak emas. Va ichida yordamchi belgilari bo'lmasligi kerak. misol:

Mumkin	Mumkin emas
my function	This&That
Size	! counter
somewords	4word
otherstring	! otherstring

O'zgaruvchilarni tanitish

Yuqorida o'zgaruvchilarga qandaydir so'zni, yoki gapni tanitish, ya'ni berishni ko'rib chiqdik.

Lekin yana bir bor qaytarib o'tish yana ham ko'proq o'rganishingizga, agarda

tushunmagan bo'lsangiz tushunib yetishingizga yordam beradi.

So'z yoki gaplarni quyidagicha qilib tanitamiz:

```
$sentence= "Salom hayot! ";
```

Sonlarni esa:

```
$price=43.22;
```

```
$ogirligi=185;
```

Ichki o'zgaruvchi

Ichki (lokal) o'zgaruvchi

Ichki (lokal) o'zgaruvchi deb funksiyaning ichida tanitilgan

o'zgaruvchiga aytiladi. misol:

```
<?
$x=4;
function assignx(){
    $x=0;
    print "\$x funksiya ichidagi $x";
}

assignx();

print "<BR> \$x tashqaridagisi $x";

?>
```

Shunda ekraningizda \$x ning ikki xil raqami chiqadi. 4 bu umumiy tanitilgan raqaaslonmi, 0 esa ichkisidir.

Global o'zgaruvchi

Global, ya'ni umumiy o'zgaruvchanlar butun sahifamiz bo'yicha hamma joyda ishlatishingiz mumkindir. Yuqoridagi misolda \$x=4 bu bizning global o'zgaruvchimizdir. Agarda uni biz funksiyamiz ichida ishlatmoqchi bo'lsak unda:

```
$sonlar==15; function arifmet() {  
    GLOBAL $sonlar $sonlar=$sonlar+10; print "Bizning son $sonlar";}  
    arifmet();
```

Static o^Tzgaruvchi

Static: Bu ichki o'zgaruvchi bo'lib, ammo funksiyaning ichidan chiqqaningizdan keyin ham o'z qiymatini saqlab qoladi, va shu funksiyani

keyingi bor ishlatganingizda o'z qiymati bilan ishlaydi. Misolda ko'raylik:

```
function keep_track(){  
    STATIC $count=0;  
    $count=$count + 10; print $count; print "<BR>";  
}  
keeptrack();  
keep_track();  
keeptrack();
```

Agarda siz shu kodni ishlatsangiz unda sizning ekraningizda 10 20 30 sonlari yoziladi. Ko'rib turganingizdek har gal yangittan ishlatganingizda count o'z qiymatini saqlab qoldi.

Bir turdan ikkinchi turga o'tish

Agarda siz qandaydir son hoh butun son hoh qoldikli bir turdan ikkinchisiga o'tkazish niyatingiz bo'lsa unda bu dars sizga yordam beradi.

Keling avval qanday turlari borligini yozib so'ngra bir turdan ikkinchisiga o'tkazishni ko'rib chiqamiz.

TURI	TA'RIFI
(INT) YOKI (INTEGER)	butun son
(REAL), (DOUBLE), (FLOAT)	qoldikli sonlar
(STRING)	harf, belgilar
(ARRAY)	Massivlar
(OBJECT)	Ob'yektlar

Keling bir turdan ikkinchi turga o'tkazishni ko'raylik.

```
$son=12;
```

```
$son=(double)$son;
```

shunda 12 soningiz 12.0'ga aylanadi.

Yoki yana bir boshqa misol

```
$son1=4.0;
```

```
$son2=5;
```

```
$son3=(int)$son1+$son2;
```

Shunda son3 9 soniga teng bo'ladi.

```
$son1=7.8;
```

```
$son2=6;
```

```
$son3=(int)$son 1+$son2;
```

Shunda son3=13'ga

Agarda siz ob'yekt bermoqchi bo'lsangiz unda:

```
$model= "Toyota ";  
$new=(object)$model;
```

siz buni ekranga chiqarish uchun scalar so'zidan foydalanishingiz kerak,

ya'ni: *print \$new->scalar;*

O'zgarmaslar

Oldindan aniqlab berilgan son yoki sozlar tarkibidir.

Misol uchun agarda biz PI so'ziga 3.14 sonini bermoqchi bo'lsak va bu son hech ham o'zgarmasligini bilsak unda biz o'zgarmasni yozishimiz kerak (constant) misol:

```
define("PI", "3.14"); print  
"PI soni bu"; print PI;
```

Shu yerda bazi bir funksiyalarni ham ko'rib chiqaylik. `print()` - Bu oynaga ma'lumot yuborishdir.

`sprintf()` - Bu qandaydir ma'lumotni formatlash(kerakli shaklga kiritish) uchun va uni qandaydir o'zgaruvchiga berish uchun ishlatiladi.

`printf()` - qandaydir ma'lumotni formatlab oynaga yuborish uchun ishlatiladi.

misol:

```
<?  
$format="The are %s monkeys in the $d";  
printf($format, $num, $location);  
?>
```

agarda biz `$num`'ga 3 bersak va `$location`'ga "tree" bersak unda quyidagi oynamizga chiqadi. "The are 3 monkeys in the tree" bo'ladi. yoki

```
<?  
$money1=68.75;  
$money2=54.35;  
$money=$money1+$money2;  
$formatted=sprintf("%01.2f", $money);  
?>
```

shunda \$formatted=123.00 bo'ladi, agarda biz sprintf siz oynaga chiqarganimizda unda 123 chiqgan bo'lardi.

Formatlashga kiritish turlari.

%-protsent belgisi.

b- son, ikkilik sanoq sistemasida (0 va 1)

c- son, songa mos keladigan ASCII belgilarini chiqaradi. (65=A belgisi) d- son, belgili onlik sanoq sistemasi (+10 yoki -10) u-son, belgilanmangan onlik sanoq sistemasi (10, 5) f- qoldikli son, qoldikli son shaklida (1.25, 20.36) o- son, sakizlik sanoq sistemasida (23, 65) s- belgi, ya'ni harflar yoki boshqa belgilar

x- son, o'n oltilik sanoq sistemasi (harflari kichkinada yoziladi) (12ab, d23c)

X- son, o'n oltilik sanoq sistemasi (harflari kattada yoziladi) (12AB, D23C) Mana shular bilan siz foydalanib ma'lumotingizni formatlashingiz mumkindir.

Operatorlar

Operatorlar	Ta'rifi
()	Qavs
new	Yangi, ob'yekt hosil qilish
! ~	Mantiqiy YO'Q
++ --	Bitta songa oshirish, kamaytirish
@	Hatolarni berkitish
/ * %	Bo'lish, ko'paytirish, qoldiq
+ - .	Qo'shish, ayirish, kesish
<< >>	Chapga, o'nga surish
< <= > >=	kichik, kichik va teng, katta, katta va
= = != ----- <>	Teng, teng emas, o'xshash, teng emas
& ^	AND, XOR, OR
&&	AND, OR
?:	uchlik operatori
= += *= / --	Belgilab berish operatorlari
%= &= = A=	
<<= >>=	
AND XOR OR	Mantiqiy va, XOR, yoki

Keling yuqoridagi operatorlar bilan ba'zi bir misollarni ko'rib chiqaylik.

`$a=5; // a teng bechga`

`$a=3*3*4*5; //a tengshu sonlar ko'paytmasiga`

`$a=(5-(6-4)); //avval 6-4 songra esa 5-(6-4) bo'ladi`

`$a+=5; // $a ning qiymatiga 5 qo 'shilib yana $a ga yozish.`

`$a/=5; // $a ning qiymati 5'ga bo'linib keyin esa qiymatni $a'gayozadi.`

`$a++; // $a ning qiymatiga 1 qo'shiladi`

`$a--; // $a ning qiymatidan 1 ayirib tashlanadi`

Lekin operandlarni joylashishini ham o'zgartirib yozishingiz mumkin, ammo uni bajaruvchi ishi ozgina o'zgaradi.

Misolda ko'raylik:

`$qiymat=$a++ // avval $qiymat'ga $a ning qiymatini yozadi,`
`so'ngra $a ning qiymatiga 1 qo'shadi.`

`$qiymat=++$a //avval $a ning qiymaga 1 qo'shiladi, so'ngra $qiymat ga $a ning`
`qiymatini beradi.`

agarda siz tenglikni tekshirmoqchi bo'lsangiz unda:

`$a==$b // $a ni $b bilan teng/tengmasligini tekshiradi`

`$a<$b // $a ni $b dan kichikligini tekshiradi`

Uchlik tekshirish.

`($a-12)?5:-1 //agarda $a=12 bo'lsa unda 5 soni qaytadi, agarda teng bo'lmasa 1 soni`
`qaytadi.`

Funksiyalar. Funksiya bu programmadagi bir programma parchasi bo'lib o'z ismi bo'ladi. Funksiya qandaydir aniq bir ishni bajaradi. Funksiyani ustunligi shundaki, funksiya bir marotaba yozilib uni xohlagan joyingizda qayta qayta ishlatishingiz va sizga kerak bo'lgan vaqtda uni osongina o'zgartirishingiz mumkin.

Yuqorida biz funksiyani ozgina bo'lsa ham ko'rib chiqdik, bu yerda esa sizga batafsil ya'ni to'la shakilda tushuntirib o'taman.

Yozilishi

`function ($o'zgaruvchi1, $o'zgaruvchi2, $o'zgaruvchi3...){ yozuvlar`

Funksiyani siz bir birini ichiga qo'shib ham yozishingiz mumkindir. Va yana bir misol, agarda siz universal copyright funksiyani yozmoqchi bo'lsangiz unda sahifa yoki nimanidir nomini tashqaridan olishingiz mumkin. Misolga qarang:

`function copyright($kitob){`

```
print "Copyright &copy; 2006 $kitob , GNU GPL Litsensiyasi ostida "
}
copyright("PHP davrasida");
```

Funksiyangiz qandaydir yozuv yoki sonni ham sizga qaytarishi mumkin. Ya'nikim, agarda siz hisob kitob ishini qilmoqchi bo'lsangiz va sizga uni natijasi kerak bo'lsa, unda siz funksiyangizdan qandaydir natijani qaytarishingiz mumkin. Misolga qarang:

```
$narx=15;
$son=3;
function hisob($narx, $son){ return $narx*$son;
}
$total=hisob($narx, $son); print "Umumiy narhi: $total";
```

shunda sizga narxni songa qanchaligiga ko'paytirib natijasini chiqarib beradi.

Yana funksiyalarni ich ichiga, ya'ni o'zidan o'zini chaqirishingiz mumkindir, bu "recursive function" - "rekursiv funksiya" deb ataladi. Misol bilan ko'raylik:

```
function summation($count){ if ($count!=0):
```

```
    return $count+summation($count1); endif;}
$sum =summation(10); print "Summation=$sum";
```

bu yerda qilinadigan ishi shuki, avval 10 ga 9 ni qo'shadi ya'ni, o'zini yana chaqiradi faqat 9 soni bilan 9 sonidagi funksiya esa 8 bilan yana o'zini chaqiradi. Bu oxirida 0 bo'lguncha davom etadi. Shunda ekraningizda 1 dan 10 gacha sonlar yig'indisi chiqadi.

Agar siz juda ham ko'p funksiyalar ishlatish niyatida bo'lsangiz unda funksiyalar uchun alohida bir fayl yaratib shu faylga hammasini yozishingiz mumkin, keyin esa shu faylni asosiy oynangizda chaqirib ichidagi funksiyalarni ishlatishingiz mumkin.

Buning uchun qandaydir qo'shimcha .inc yaratib ya'ni fayl yaratib, uni ichiga bir qancha funksiyalar yozing.

```
Misol: qo'shimcha.inc
<?
function copyright(){
}function hisob(){
```



```

    }
    function summation () {
    }
    ?>

```

Keyin esa asosiy kodingizda *include (faylga yo'l)*; operatori bilan qo'shing.

Ya'ni:

```

<?
include (qoshimcha.inc); hisob();
$sum = summation (10);
?>

```

Sinflar va ob'ektlar.

Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlashning asosiy tushunchalari - sinflar hamada ob'ektlardir. Bu tushunchalarni quyidagicha tushunish mumkin: ob'ekt - bu dasturda qo'llaniladigan tushuncha yoki biror fizik predmet haqida ma'lumot beradigan strukturalangan o'zgaruvchidir, sinflar esa bu ob'ektlarning tavsifi va ular ustida bajariladigan harakatlardir.

PHP dasturlash tilida sinflar quyidagi sintaksis yordamida

aniqlanadi: class Sinf_nomi { var \$xususiyat_nomi;

```

    /*xususiyatlar
    ro'yxati*/      function
    metod_nomi( ){
    /* usullarning tanasi */

    }
    /*usullar ro'yxati*/
}

```

Ob'yekt tushunchasi.

Sinf ob'ektlari xususiyatlari nomi var kalit so'zi yordamida e'lon qilinadi, berilgan sinf ob'ektlariga qo'llanilgan usullar funktsiya sifatida ishlatiladi. Sinf tanasi ichida this kalit so'zi yordamida taqdim qilinayotgan joriy sinfga murojaatni amalga

oshirish mumkin.

Masalan, biz maqola kategoriyasini tasvirlovchi sinf tuzishimiz kerak. Har bir maqolaning nomi, muallifi va qisqa mazmuni kabi xususiyatlari bor. Biz maqola bilan qanday amal bajarmoqchimiz? Biz sanab o'tilgan xususiyatlarga ma'no berishimiz, maqolani brauzerda ko'rsatishimiz kerak bo'ladi. Shunda bu sinfning ifodalanishi quyidagicha holatda bo'ladi:

```
<?
class Articles { // Maqola sinfini
    tuzamiz var $title; var $author;
    var $description;
// maqola atributi // ma'nosini
o'zlashtiruvchi usul function
make_article($t, $a, $d){
    $this->title = $t;
    $this->author = $a;
    $this->description = $d;
}
//sinf nusxasini ifodalash uchun
usul function show_article(){
    $art = $this->title . "<br>" .
        $this->description .
        "<br>Muallif: " . $this-
        >author; echo $art;
}
}
?>
```

Shunday qilib “maqola” turidagi fizik ob’ektlarni tasvirlash uchun biz uch o’zgartuvchidan tashkil topgan, maqola xarakteristikasini o’zida jamlagan Articles nomli sinf va muayyan maqola tuzish va uni tasvirlash uchun ikkita funktsiya tuzdik.

Ma'lumki, PHP bilan ishlash davriy holatda HTML rejimida yuklanishi mumkin. Bu holda dastur bir necha kodning bo'laklari(bloklar)dan tashkil topadi. Sinfni ifodalash php-kodning har xil bloklari bo'yicha va qolaversa har xil fayllar

bo'yicha tarqatilmashligi kerak. Ya'ni quyidagicha yozsak:

```
<?php
class Articles { // Sinfni tasvirlashning
    boshi var $title;
?>

<?php
// sinfni tasvirlashning davomi function
    show_article(){
        //      usulning
        tarkibi }
} // sinfni tasvirlashning yakuni
?>
```

bunda dastur tartibli ishlaydi.

Sinf nomi masalasida ayrim narsalarni e'tiborda tutish kerak. Sinfning nomi PHP tilidagi ob'ektlar nomlanishi qoidalariga javob berishi lozim, lekin bir qator nomlar borki, texnik mutaxassislar tomonidan o'z maqsadi uchun zaxira qilinadi. Birinchi navbatda bu nomlar “_” quyi chiziqdan boshlanuvchilardir. Sinflar va funktsiyalar tuzish uchun bu kabi nomlarni ishlatmaslik kerak. Bundan tashqari stdClass nomi zaxira qilingan, zero u PHP surilgichi ichida ishlatiladi.

O'zgaruvchilarni initsiallashtirish

